

TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

MONITORING AND EVALUATING THE QUALITY OF EDUCATION

Shukur Po'latov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti

Menejment kafedrası dotsenti

Shukur Pulatov

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Pedagogy

Associate Professor of the Department of Management

Annotatsiya: Pedagogika tarixida dastlab o'qitish sifatini va natijalarni baholash, ta'lim jarayoni natijadorligi va ahvoli, ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash, uning monitoringini olib borish, indikatorlarni doimiy takomillashtirish, o'qitish natijalarini nazorat qilishni ta'minlash, davlat ta'lim standartlariga ko'ra o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar baholanishi zaruriyati, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash, ta'lim sifati monitoringining modeli.

Аннотация: В истории педагогики первоначально поднимались вопросы оценки качества обучения и результатов, эффективности и состояния образовательного процесса, мониторинга и оценки качества образования, проведения его мониторинга, непрерывного совершенствования показателей, обеспечения контроля за результатами обучения, необходимости оценки знаний, навыков, квалификаций и компетенций учащихся в соответствии с государственными образовательными стандартами, оценки уровня усвоения знаний учащимися, модели мониторинга качества образования.

Abstract: In the history of pedagogy, initially the issues of assessing the quality of teaching and results, the effectiveness and state of the educational process, monitoring and evaluating the quality of education, conducting its monitoring, continuous improvement of indicators, ensuring control over the results of teaching, the need to assess students' knowledge, skills, qualifications and competencies according to state educational standards, assessing the level of student mastery, a model of monitoring the quality of education

Tayanch so'zlar: Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta'lim sifati, ta'lim sifatini baqolashni boshqarish, baholashni nazorat etish printsiplari, ijtimoiy buyurtmalarni bajarganligi tahlili, maqsad me'yorlari sifati, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlari.

Ключевые слова: Качество образования в научно-педагогической литературе, принципы оценки и контроля качества образования, анализ выполнения социальных порядков, качество целевых стандартов, богатое интеллектуальное наследие народа и универсальные человеческие ценности.

Keywords: Quality of education in scientific and pedagogical literature, principles of assessment and control of educational quality, analysis of the fulfillment of social orders, quality of goal standards, rich intellectual heritage of the people and universal human values.

Ta'lim berish paydo bo'lganidan boshlab o'qitishni yangi usullarini izlab topish, o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, natijalarni qiyosiy taqqoslash va o'rganilgan bilimlarni baholash muammosi bo'yicha pedagogik izlanishlar o'rganib borilgan.

Pedagogika tarixida dastlab o'qitish sifatini va natijalarni baholash o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan. Sharq va uning tarkibiy kismi bo'lgan O'rta Osiyo tafakkur tarixi, umumjahon va umuminsoniyat tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Shu sababdan kadimgi yunon naqlarida «Nur Sharqdan» deyilgan¹. Mazkur naqlning yuzaga kelishiga ta'lim, madaniyat va san'at dastlab Misr, Xitoy, Xindiston, Markaziy Osiyo kabi ulkalarida maydonga kelganligi dalilidir.

Nazorat topshiriqlari quyidagi printsiplar asosida baholanadi:

- tekshiriladigan ta'lim mazmuni va o'quv-tarbiya jarayonini adekvat qamrab olshi;
- imkoni boricha ko'proq tadqiqotda ishtirok etayotgan davlatlarda o'rganiladigan o'quv materiallariga Xalqaro baholash dasturi asosida topshiriqlarining muvofiqligini ta'minlash;
- nazorat topshiriqlarining o'zaro aloqasini ta'minlash;
- baholanayotgan ta'lim mazmunining matematika va tabiiy fanlarning rivojlantirishdagi ahamiyatliligi;
- tayyorlangan nazorat (test, yozma so'rovnomalar,...) topshiriqlarining o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari muvofiqligi;
- keng qamrovli tadqiqotlarni amalga oshirish talablariga amal qilinishi va

¹ Turgunov S.T., Maksudova L.A. va boshk. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. - Toshkent: Sano-standart. 2012, 48 b

boshqalar kiradi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash, uning monitoringini olib borish, indikatorlarni doimiy takomillashtirib borish bugungi kundagi eng muhim yo'nalishlardan biri sanalib, ta'lim sifatining zaruriy darajasini ta'minlash, ta'lim sifati menejmenti va kvalimetriyasining samarali metodlarini ishlab chiqishga nisbatan metodologik yondashuvni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Ta'lim sifati: maqsadlar me'yorlar sifati; shart-sharoitlar sifati; ta'lim jarayoni sifati; yakuniy natijalar sifati.

Ta'limda sifatni boshqarish tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta'limga bo'lgan talablarni ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda anglash;
- iste'molchiga mo'ljall olish, mehnat bozoridagi keskin raqobat boshqarish tizimidan safarbarlik va dinamiklikni talab etadi;
- monitoring natijalarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini doimiy takomillashtirib borish.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta'lim sifati asosan ta'lim natijalari bilan baholanishi qayd etilib, asosiy urg'u kognitiv masalalarga beriladi. Ta'lim sifati na faqat bitiruvchilarning "chiqish" natijalari bilan, balki ta'lim jarayoni sifati, yaratilgan sharoitlar bilan ham baholanishi ta'kidlanadi.

Ta'lim sifati ta'lim jarayoni natijadorligi va ahvoli, uning jamiyat va davlat talablariga mosligini belgilovchi, shaxsning fuqarolik, maishiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy integral kategoriya sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda o'quvchilarning sifatli bilim olishini va ularni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga mos holda o'qitish natijalarini nazorat qilishni ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida quyidagi nazorat turlari olib boriladi:

▪ *joriy nazorat* – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda nazorat qilish uchun so'rovlar, nazorat ishlari yoki testlar ko'rinishida o'tkaziladi;

▪ *oraliq nazorat* – chorak yakunida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun o'quv dasturining bir qismi tugaganda amalga oshiriladi va u yozma nazorat ishi yoki testlar ko'rinishida olib boriladi;

▪ *bosqichli nazorat* – o'quv yili tugaganda og'zaki, yozma imtihon hamda test sinovlari ko'rinishida amalga oshirilib, unga asosan o'quvchining yakuniy bahosi, reytingi aniqlanadi va o'quvchini keyingi sinfga o'tkazishga qaror qilinadi;

▪ *yakuniy nazorat* – umumiy o'rta ta'lim tugaganidan so'ng yakuniy davlat attestatsiyasi shaklida o'tkaziladi va bunda o'quvchilarning:

- *bilim* — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

- *ko'nikma* — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;
- *malaka* — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;
- *kompetensiya* — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatlari baholanishi ta'kidlangan.

Amaldagi davlat ta'lim standartlariga ko'ra o'quvchilarimizda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar baholanishi zarur bo'lsada, amaldagi baholash tizimi mazkur amaliyotni qo'llash imkonini bermaydi. Buning asosiy sababi o'qituvchilar tomonidan asosan o'quvchining o'zlashtirgan (yodida eslab qolgan bilimlari hajmi) darajasi yoki sinfdagi eng yaxshi o'quvchiga nisbatan baholash odat bo'lib qolgan.

Ammo, bu yerda o'qituvchining aybi yo'q, chunki amaliyotga joriy etilgan baholash tizimi, normativlar boshqacha baholash metodologiyasini qo'llash imkonini bermaydi.

Ta'lim sifati monitoringi jarayonida quyidagi ijtimoiy buyurtmalarni bajarganligi o'rganiladi, tahlil qilinadi:

- kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni, ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini, o'quv yuklamasining zarur xajmini, ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash;

- o'quvchilarda umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti talablari asosida umumta'lim fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning shakllantirganlik darajasini hamda ularga ta'sir yetgan omillarni aniqlash;

- o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning zamonaviy ilg'or shakllarini, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy yetilganligi;

- tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mamlakatning taraqqiyoti va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan milliy mustaqillik g'oyalarini o'quvchilarga singdirilishi;

- ta'lim muassasalari uchun o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlod adabiyotlaridan samarali foydalanish holati;

- ta'lim muassasalarida moddiy-texnik shart-sharoitlardan samarali foydalanish holati;

- tizimli asosda pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish holati;

- xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy

yetilganligi;

- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini oshirish holati;

- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi darajasini tizimli baholash, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan kuyiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani amaliyotga joriy yetilganligi;

- o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga yeta bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olishdir.

Ya'ni u ta'lim jarayonini doimiy ravishda kuzatib va to'g'irlab bormasa, mavjud bo'lolmaydi. *Shuning uchun professional ta'limi sifatini boshqarishning pedagogik texnologiyalari:*

- maqsadni qo'yish;
- tayanch bilimlarni dolzarblashtirish;
- erishilgan natijalarni nazorat qilish va tahlil etish;
- o'zlashtirishni baholash vazifalarining hal etilishini o'z ichiga oladi.

Mazkur harakatlar algoritimi ta'lim muassasasini amalga oshirishda ushbu maqsad va vazifalar belgilanadi hamda ularni amalga oshirish uchun pedagogik texnologiyalar nazariyasidan foydalanish lozim. U orqali diagnostikalashning strategik vazifalari belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun (2020-yil 23-sentyabr)

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish hamda ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 91-son qarori.

3. M.M.Vahabov - 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta'limda menejment. Doktorli dissertatsiya, 14.07.2016/B2016.3.Rcd53 raqam bilan ro'y[atdan o'tkazilgan.

4. Po'latov Sh.P. Ta'lim menjmenti yohud ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarishga innavatsion yondashuv, T."Yosh kuch", 2022. 736 b.

5. Po'latov Sh.P. Ta'lim sifati menjmenti, T. "ZUXRO BARAKA BIZNES" MCHJ, 2024. 464 b.